

Zamonaviy korxona imkoniyatlari kengayadi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahridagi "Aziya metall prof" mas'uliyati cheklangan jamiyatni faoliyati bilan tanishdi.

Ushbu yirik zavodda 2018-2022-yillarda xitoylik hamkorlar bilan birgalikda umumi qiymati 110 million dollarlik loyihalar amalga oshirilgan. Bu mablag'ning 33 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyadir.

Dastlab, 2018-yil dekabrda rux va polimer bilan qoplangan metall listlar tayyorlash boshlangan bo'lsa, ikkinchi bosqichda, 2021 yildan metall quvurlar va profillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 2022-yil fevraldan issiq o'ramali metall listlar va qurilish uchun profillar ham ishlab chiqarilmoqda.

Ushbu mahsulotlar import o'rnini bosishi va eksportbopligi bilan ahamiyatli. Xususan, o'tgan yili korxona tomonidan 63 million dollarlik mahsulot eksport qilingan. Bu ko'rsatkich joriy yilda yanada yuqori bo'lishi kutilmoqda. Ayni paytda korxonada 520 nafar ishchi mehnat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari loyihaning to'rtinchi bosqichi - armatura ishlab chiqarish korxonasining qurilish maydonida bo'ldi. Bu yerda yiliga 390 ming tonna armatura quyish quvvati hamda 150 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Umuman, 2023-2025-yillarda yana beshta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Ularga jami 621 million dollar yo'naltirilib, yiliga 1,7 million tonna metall hamda 10 million metr kvadrat oyna ishlab chiqarish quvvati yaratiladi. 930 ta yangi ish o'rni ochiladi.

Prezidentimiz mahalliylashtirish va tannarxni tushirish orqali eksportda raqobatbardoshlikni oshirish kerakligini ta'kidladi.



Manba